

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**ERJIGITOV DOSTON SHERALIYEVICH**

**DNK MARKERLAR TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA YUMSHOQ  
BUG‘DOYNING BIOTIK VA ABIOTIK OMILLARGA CHIDAMLI  
GENOTIPLARINI OLISH**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Erjigitov Doston Sheraliyevich**

DNK markerlar texnologiyasi yordamida yumshoq bug‘doyning biotik va abiotik omillarga chidamli genotiplarini olish..... 3

**Эржигитов Достон Шералиевич**

Получение генотипов мягкой пшеницы, устойчивых к биотическим и абиотическим факторам, с использованием технологии ДНК-маркеров.... 21

**Erjigitov Doston Sheralievich**

Obtaining bread wheat genotypes resistant to biotic and abiotic factors using DNA marker technology..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**ERJIGITOV DOSTON SHERALIYEVICH**

**DNK MARKERLAR TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA YUMSHOQ  
BUG‘DOYNING BIOTIK VA ABIOTIK OMILLARGA CHIDAMLI  
GENOTIPLARINI OLISH**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B1338 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.genetika.uz](http://www.genetika.uz)) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turayev Ozod Sunnataliyevich**  
biologiya fanlari falsafa doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Bozorov Toxir Axmadovich**  
biologiya fanlari doktori

**Xamrayev Nurbek Ulug'bekovich**  
biologiya fanlari falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz qo'rg'oni 266 - uy, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90; e-mail: [igebr\\_anruz@mail.ru](mailto:igebr_anruz@mail.ru))

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz qo'rg'oni 266 - uy, Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A. Narimanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, q/x.f.d., professor

**I.Dj. Kurbanbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

**I.T. Qahharov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
q/x.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Bug‘doy (*Triticum aestivum* L.) dunyo qishloq xo‘jaligida eng ko‘p yetishtiriladigan va ozuqaviy jihatdan qimmatli bo‘lgan donli oziq-ovqat ekinidir. Dunyo aholisining ko‘payishi oziq-ovqatga bo‘lgan talabni tobora oshirmoqda. Global miqyosda iqlim o‘zgarishi va turli biotik hamda abiotik omillar bug‘doy hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, shu sababli salbiy tasir ko‘rsatayotganligi tufayli biotik va abiotik stress omillarga chidamli genotiplarni olish va navlarni yaratishni talab etadi. Iqlim o‘zgarishlarining oqibatlarini yumshatish uchun dunyo olimlari tomonidan abiotik va biotik omillarga chidamli bug‘doy navlarni yaratishda DNK markerlar texnologiyasidan foydalanib kelinmoqda. Bunda hosildorlik hajmi ortishi va aholini oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda zamonaviy qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish va barqaror oziq-ovqat ta‘minotini ta‘minlash bug‘doy (*Triticum aestivum* L.) kabi strategik ekinlar uchun muhim vazifadir. Xususan, yumshoq bug‘doyning yuqori harorat, qurg‘oqchilik va sariq zang kasalligiga chidamlilik xususiyatlariga aloqador gen va DNK markerlarini aniqlash va ulardan zamonaviy seleksiya texnologiyalaridan foydalanib chidamli navlarni yaratishning asosi sifatida keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramay, sariq zang kasalligi, yuqori harorat va qurg‘oqchilik bugungi kunda yechimini kutayotgan jiddiy muammolar sirasiga kiradi. Shu jihatdan, biotik va abiotik stress omillariga chidamli, hosildor yumshoq bug‘doy genotiplarini, navlarini yaratish bugungi kundagi seleksiyaning dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda g‘allachilik sohasiga intensiv va innovatsion ishlanmalarni joriy qilgan xolda biotik va abiotik stress omillarga chidamli yumshoq bug‘doy navlarini yaratish ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu kungacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida yumshoq bug‘doyning mahalliy iqlim sharoitlarga moslashgan, kasalliklarga chidamli genotiplarni aniqlash va seleksiya ishlariga amaliy tadbiriq etish orqali yangi istiqbolli navlar yaratishda muhim natijalarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shirishini kamida 5 foizga yetkazish”<sup>1</sup> bo‘yicha ham bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda yetishtirilayotgan yumshoq bug‘doyning mahalliy va jahon kolleksiyasi nav namunalari yuqori haroratga, qurg‘oqchilikka va sariq zang kasalligiga chidamlilik xususiyatlarini DNK markerlari asosida bitta genotipga jamlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4634-son “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bugungi kunga kelib, butun dunyoda bug‘doy seleksiyasida DNK markerlar texnologiyasidan samarali foydalanib kelinmoqda. Xususan, DNK markerlaridan foydalanib hosildorlik va sariq zang kasalligiga chidamlilikni yagona genotipga jamlash bo‘yicha S. Kaur (2020), R. Liu (2020), A. Sharma (2021), F. Wang (2023), oqsil miqdori va sifati hamda zang va un shudring kalsalliklariga chidamli genotiplarni olish bo‘yicha P. Gupta (2021, 2022) va X. Jin (2022), abiotik stresslarga chidamlilik genlarini bitta genotipga jamlash bo‘yicha G. Zhao (2023), o‘simliklarning miqdoriy belgilarini molekulyar genetik jihatdan o‘rganish bo‘yicha I.N. Leonova (2015), E.K. Potokina (2005), Y.P. Altuxov (2002), B.V. Rigin (2005), Y.V. Chesnokov (2013), E.K. Xlestkina (2013), qimmatli xo‘jalik belgilariga ega yumshoq bug‘doyning yangi genotiplarini yaratish va ularning kasalliklarga chidamliligini baholash bo‘yicha V.V. Syukov (2013) va Z.N. Kerimova kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Respublikamizda yumshoq bug‘doyning genetikasi, atrof muhitning noqulay omillariga va sariq zang kasalligiga chidamliligini aniqlash bo‘yicha S.K. Baboyev (2008-2023), X.S. To‘raqulov (2014-2024), Z.M. Ziyaev (2016-2023), N.J. Umirov (2008-2023), va boshqa olimlar tomonidan, navlarning don sifat ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha D.E. Qulmamatova (2022), N.U. Xamrayev (2022), bug‘doy navlarining abiotik stresslarga javobgar genom bo‘ylab SSR markerlar tahlili va gen ekspressiyalari tahlili bo‘yicha F.N. Kushanov (2018-2024) va O.S. Turayevlar (2022-2024) hamda shiraga chidamlilikni molekulyar-genetik baholash bo‘yicha U.Sh. Bahadirov (2022) kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biroq, respublikamizda hanuzgacha DNK markerlar texnologiyasi asosida yumshoq bug‘doyning sariq zang kasalligiga, yuqori harorat va qurg‘oqchilikka chidamlilikni yagona genotipga jamlash bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Shu sababli, ushbu texnologiyaga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-4821091674 “Qurg‘oqchilikka chidamli istiqbolli navlarni yaratish uchun samarali molekulyar markerlarni ishlab chiqish maqsadida degidrinlarni kodlovchi genlarning yumshoq bug‘doyning

qurg'ochilikka chidamlilikdagi hissasini aniqlash" (2022-2024-yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** DNK markerlar texnologiyasidan foydalanib, kuzgi yumshoq bug'doyda sariq zang kasalligi, yuqori harorat hamda qurg'ochilikka chidamlilik xususiyatlarini bir genotipga jamlash orqali yangi genotiplar olishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yumshoq bug'doyning mahalliy navlari va CIMMYT kolleksiyasidan olingan istiqbolli tizmalarning yuqori harorat, qurg'ochilik va sariq zang kasalligiga chidamliligini dala va laboratoriya sharoitlarida baholash;

bug'doy namunalarini asosiy morfologik va xo'jalik belgilari bo'yicha baholash;

sariq zang, yuqori harorat va qurg'ochilikka chidamlilik bilan genetik bog'langan DNK markerlari asosida bug'doy namunalarining genetik polimorfizmini tadqiq etish;

tadqiqot namunalari ishtirokida har bir o'rganilayotgan belgi bo'yicha oddiy va murakkab kombinatsiyali duragaylar olish;

duragay kombinatsiyalarning sariq zang kasalligi, yuqori harorat va qurg'ochilikka chidamliligini laboratoriya va dala sharoitida baholash;

laboratoriya va dala sharoitida duragay kombinatsiyalarning morfo-xo'jalik ko'rsatkichlarini baholash;

ikkinchi avlod ( $F_2$ ) murakkab kombinatsiyali duragaylarni polimorf DNK markerlari yordamida genotiplash orqali, yuqori harorat, qurg'ochilik va sariq zang kasalligiga chidamlilik xususiyatlarini jamlagan genotiplarni tanlash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida O'zbekiston bug'doy seleksiyasiga mansub mahalliy navlar hamda Xalqaro bug'doy va makkajo'xorini rivojlantirish markazi (CIMMYT) tomonidan taqdim etilgan yumshoq bug'doy (*Triticum aestivum* L.) nav va tizmalaridan hamda ular ishtirokida olingan duragay kombinatsiyalar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Kuzgi yumshoq bug'doy (*Triticum aestivum* L.) nav va tizmalarining, hamda ular asosida olingan duragaylarning sariq zang kasalligig, yuqori harorat va qurg'ochilikka chidamlilik xususiyatlari va ushbu belgilar bilan bog'liq DNK markerlar yordamida nav namunalarning genetik xilma-xilligi, klaster tahlili va ular o'rtasidagi o'zaro filogenetik munosabatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqotlarini bajarishda bug'doy genetikasi va seleksiyasining an'anaviy usullaridan, jumladan, oddiy va murakkab duragaylash, qiyosiy morfologiya, fenologik kuzatuvlar, chidamlilikni baholash; genom DNK ajratish, PZR tahlili, gel elektroforez va genotiplash kabi molekulyar genetik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor yuqori harorat, qurg'ochilik va sariq zang kasalligiga chidamliligi kompleks tarzda yumshoq bug'doyning mahalliy navlari va CIMMYT kolleksiyasi tizmalarida fenotipik hamda genotipik darajada (DNK markerlar yordamida) baholangan;

O'zbekiston sharoitida sariq zang kasalligiga chidamlilik bilan bog'liq Xgwm120\_156, yuqori haroratga chidamlilik bilan bog'liq Xcfa2147\_300 va qurg'oqchilikka chidamlilik bilan bog'liq Xgwm484\_180 markerlari validatsiya qilinib (tasdiqlanib), ularning ushbu stress omillariga chidamlilikni aniqlashdagi yuqori samaradorligi ilmiy asoslangan;

oddiy va murakkab duragaylash usullari orqali olingan duragay kombinatsiyalarida qimmatli xo'jalik belgilari va stress omillarga chidamlilikning irsiylanish va o'zgaruvchanlik ko'lami aniqlangan;

ilk bor DNK markerlar texnologiyasi yordamida murakkab kombinatsiyali  $F_2$  o'simliklarida sariq zang, yuqori harorat va qurg'oqchilik stress omillariga chidamlilik allellarini yagona genotipga jamlash orqali yangi, istiqbolli genotiplar yaratilgan;

o'rganilgan murakkab kombinatsiyalar orasidan  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  kombinatsiyasi yuqori darajadagi chidamlilik ko'rsatkichlarini namoyon etgan va seleksiya jarayonida qimmatli manba sifatida foydalanish uchun ajratib olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sariq zang kasalligiga immunli Xisorak, KR12-9023, KR12-5003 nav va tizmalari, yuqori haroratga o'ta chidamli KR12-5003 tizmasi, qurg'oqchilikka chidamli KR12-07 tizmasi tanlab olingan va ular kelgusida seleksiya jarayonida boshlang'ich manba sifatida foydalanish uchun ajratib olingan;

mos ravishda sariq zang, yuqori harorat va qurg'oqchilikka chidamlilik bilan bog'liq Xgwm120\_156, Xcfa2147\_300 va Xgwm484\_180 markerlari amaliy seleksiya jarayonida bug'doy genotiplarini tezkor va aniq baholash uchun ajratib olingan;

murakkab kombinatsiyali duragaylaridan sariq zang kasalligiga, yuqori harorat va qurg'oqchilikka chidamli 6 ta istiqbolli genotip tanlab olingan. Shuningdek, ikkita stress omiliga ya'ni, sariq zang kasalligiga va yuqori haroratga chidamli - 6 ta genotip, sariq zang kasalligiga va qurg'oqchilikka chidamli - 6 ta genotip, qurg'oqchilik va yuqori haroratga chidamli - 10 ta genotiplar ajratib olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanishlarda qo'llanilgan genetika va seleksiyaning zamonaviy usul va yondashuvlardan foydalanilganligi, variatsiyalar tahlili (ANOVA, Origin pro) asosida olingan raqamli ma'lumotlarning statistik qayta ishlanganligi, qo'llanilgan an'anaviy va molekulyar genetik usullar hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalar asoslanganligi, ilmiy va amaliy tadqiqot natijalarining xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi hamda ilmiy nashrlarda chop qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston sharoitida bug'doyning sariq zang, yuqori harorat va qurg'oqchilikka chidamliligi kompleks tarzda fenotipik va genotipik darajada baholanganligi, chidamlilikning genetik asoslari o'rganilganligi, ushbu stress omillariga chidamlilik bilan bog'liq DNK markerlari validatsiya qilinganligi va

murakkab duragaylash orqali olingan yangi genetik kombinatsiyalarning chidamliligi va qimmatli xo‘jalik belgilarining o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati abiotik va biotik stresslarga kompleks chidamli genotiplarning olinganligi hamda chidamlilikka aloqador DNK markerlar (Xgwm120\_156, Xcfa2147\_300, Xgwm484\_180) ishonchliligi molekulyar-genetik usullar yordamida tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** DNK markerlar texnologiyasi yordamida yumshoq bug‘doyning biotik va abiotik omillarga chidamli genotiplarini olish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tadqiqotlar natijasida aniqlangan DNK markerlaridan bug‘doyning sariq zang kasalligiga chidamli liniyalarini ajratib olish, chidamli namunalarda esa qaysi turdagi Yr genlari mavjud ekanligini aniqlashda “Bug‘doyning sariq zang va g‘o‘zaning fuzariozli vilt kasalligi zamburug‘larini molekulyar genetik xilma xiligini aniqlash” (2020-2024 yillar) mavzusidagi budjet (bazaviy) dasturini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025 yil 12 maydagi 4/1255-1153-son ma‘lumotnomasi). Natijada, bug‘doyning biotik omillar bilan genetik bog‘langan Barc8 (Yr15), Gwm413 (Yr15), Wmc44 (Yr29) va csLV34 (Yr 18) kabi markerlari bug‘doyda sariq zang kasalligiga chidamlilikni namoyon qiluvchi chidamlilik genlarni tahlil qilish va identifikatsiyalash imkonini bergan.

tadqiqotlar natijasida O‘zbekistonning mahalliy bug‘doy navlari (Xisorak, Asr va Shams) hamda CIMMYT tashkilotining (KR12-07, KR12-5003 va KR12-9023) tizmalaridan ajratib olingan 6 ta genotip yuqori harorat, qurg‘oqchilik va sariq zang kasalligiga chidamli deb topilib, ICARDA tashkiloti tomonidan seleksiya va genetik tadqiqotlar uchun boshlang‘ich manba sifatida joriy etilgan (ICARDA - Qurg‘oqchil hududlarda qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari xalqaro markazining 2024 yil 4 dekabrda ICT/1705 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur genotiplar bug‘doyning stressga chidamliligini oshirish, genetik bazasini boyitish, iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida olib borilayotgan amaliy ishlarni rivojlantirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslab berilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar ham keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bug‘doyda miqdoriy belgilar lokuslarining aniqlanishi va molekulyar seleksiyada qo‘llanilishi”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid xorijlik va respublikamiz olimlari tomonidan bug‘doyda sariq zang kasalligiga, yuqori harorat va qurg‘oqchilikka chidamlilik belgilarini molekulyar-genetik identifikatsiyasiga qaratilgan tadqiqotlar sharhi keltirilgan. Ayniqsa, bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan yumshoq bug‘doy seleksiyasi tadqiqotlarida qo‘llanilib kelinayotgan DNK markerlar texnologiyasi, uning ahamiyati, afzalliklari va samaradorligi alohida yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu bobda bug‘doyda sariq zang kasalligiga, yuqori haroratga va qurg‘oqchilikka chidamlilikning genetik asoslari bilan bog‘liq tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazilgan joy va sharoiti, manbai va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o‘tkazish joy, uning sharoiti, tadqiqot materiali, ularning tavsifi, tadqiqot o‘tkazish uslublari, laboratoriya va dala sharoitida an’anaviy va molekulyar-genetik usullarini amalga oshirish borasidagi ishlar, olingan natijalarni tahlil qilishda qo‘llanilgan statistik uslublar kabi ma'lumotlar va tadqiqotlar 2021-2024 yillar mobaynida Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutida olib borilganligi keltirilgan.

Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar, va unda qo‘llanilgan uslublar quyidagi izchillikda amalga oshirilgan: ana’anaviy usulda bug‘doy genotiplarini o‘zaro duragaylash, murakkab kombinatsiyali duragaylar olish va ularning avlodini oshirish, o‘simliklar to‘qimasidan genom DNK ajratish, chidamlilik markerlari asosida polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR), gel-elektroforez va genotiplash, filogenetik shajara tuzish usullari, shuningdek, olingan raqamli ma'lumotlarni statistik usullardan foydalanib tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot namunalarini chidamlilikka aloqador DNK markerlari va fenologik tahlillar asosida baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot namunalarini sariq zang kasalligiga, yuqori harorat va qurg‘oqchilikka chidamliligini fenologik va DNK markerlar yordamida baholash asosida chidamli namunalar hamda ishonchli DNK markerlari ajratib olish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining tahlili keltirilgan.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida boshlang‘ich manba sifatida tanlab olingan bug‘doy namunalarning sariq zang kasalligiga chidamliligini baholash natijalari bayon etilgan. Tadqiqot namunalari McIntosh (1995) usulida dala sharoitida hosil qilingan sun‘iy infeksiya fonda uch yil davomida sariq zang kasalligiga chidamliligi baholandi. Natijalarga ko‘ra, Xisorak, KR12-5003 va KR12-923 namunalari sariq zang kasalligiga mutlaq chidamlilikni namoyon etib, kasallikka nisbatan immunli ekanligi aniqlangan (1-jadval).

**1-jadval.**


**O‘simlikning turli o‘sish fazalaridagi zararlanish darajasi va reaksiyasi.**

№	Navlar	O'simliklarning o'sish fazalari																	
		Naychalash						Boshoqlash						Gullash					
		Zararlanish darajasi va reaksiyasi (yillar kesimida)																	
		Darajasi			Reaksiyasi			Darajasi			Reaksiyasi			Darajasi			Reaksiyasi		
		2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024
1	Asr	5	20	15	S	S	S	15	40	30	MS	S	MS	20	50	40	MS	MS	MS
2	Shams	5	10	15	S	S	S	10	30	30	MS	S	MS	20	40	45	MS	MS	MS
3	Xisorak	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
4	KR-12-07	10	15	20	S	S	S	10	50	40	S	S	S	40	70	60	S	S	S
5	KR-12-5003	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
6	KR-12-9023	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

PZR tahlili natijasiga ko'ra, sariq zang kasalligiga chidamlilikka aloqador 34 ta DNK markerlaridan 11 tasi bug'doy namunalari o'rtasidagi genetik polimorfizmni namoyon etdi. Polimorf markerlardan faqatgina Xgwm120 DNK markerning 156 juft nukleotidga ega alleli (*Yr5* geniga bog'langan) yuqorida ta'kidlangan immunli chidamlilikka ega namunalarda genomida uchradi. Qolgan namunalarda ushbu allel uchramadi. Bu esa mazkur genetik markerning chidamlilikka yuqori darajada aloqador ekanligidan dalolat beradi. Ushbu natijalar chidamlilik allellari asosida hosil qilingan filogenetik shajara daraxtida ham o'z aksini topdi. Klaster tahlili namunalarda orasidagi genetik o'xshashlik yoki farqlarning darajasini ko'rsatadi. Dendrogramma ikkita asosiy klasterga ajralgan. Birinchi katta klasterdan Xisorak, KR-12-5003 va KR-12-9023 namunalari o'rin olib, bu ularning sariq zang kasalligiga chidamlilik allellari bo'yicha genetik yaqin ekanligini ko'rsatgan (1-rasm).


Bobning ikkinchi bo'limida bug'doy namunalari yuqori haroratga chidamliligini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan. Bunda, Alsamadaniy (2016) uslubida namunalarning maxsus o'simlik o'stirish kameralarida yuqori harorat stressi (35°C) ostida o'stirish orqali hamda DNK markerlar tahlili yordamida ularning chidamligi baholangan (2-rasm).

Yuqori haroratga chidamlilik o'simliklarning chidamlilik indeksini xisoblash orqali aniqlandi. Chidamlilik indeksi (ChI) yuqori harorat sharoitida o'sishning optimal haroratga nisbatan qanchalik saqlanib qolishini ko'rsatadi. Eng yuqori ChI ko'rsatkichlari KR12-5003 (71,8%) va Shams (54,5%) navlarida kuzatilgan.




**1-rasm.** Tadqiqot namunalarining sariq zang kasalligiga chidamlilik allellari asosida tuzilgan klaster tahlili.

Bu esa ushbu navlarning yuqori haroratga nisbatan eng chidamli ekanligini ko‘rsatadi. Eng past ChI ko‘rsatkichlari Asr (25,4%) va Xisorak (44,6%) navlarida kuzatilgan. Bu ushbu navlarning yuqori haroratga nisbatan kam chidamli ekanligidan dalolatdir.



**2-rasm.** Bug‘doy namunalarining “optimal” va “stress” sharoitlaridagi o‘simlik bo‘yi ko‘rsatkichlari.

Bug‘doyning yuqori haroratga chidamliligini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan PZR tahlili natijasida, chidamlilik bilan bog‘liq 40 ta DNK markeridan 24 tasi genetik polimorfizmi aniqlangan. Ushbu polimorf markerlar ichida Xcfa2147 markeri alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning 300 juft nukleotiddan iborat alleli chidamli namunalarda uchragan. Bu holat Xcfa2147 markerining yuqori haroratga chidamlilik bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatgan (3-rasm).



**3-rasm.** Tadqiqot namunalari yuqori haroratga chidamlilik allellari asosida tuzilgan klaster tahlili.

Chidamlilik marker allellari asosida tuzilgan klaster tahlili ham bu natijani tasdiqladi va chidamli namunalar (KR12-5003 va Shams) alohida guruhni tashkil etdi. Ushbu natijalar bug‘doyning yuqori haroratga chidamliligini aniqlashda Xcfa2147 markeridan foydalanish mumkinligini ko‘rsatgan.

Bobning uchinchi bo‘limida tadqiqot namunalari qurg‘oqchilikka chidamliligini baholash bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan. Chidamlilik laboratoriya sharoitida, Osipov (1970) va Kojushko (1982) uslublarida 16 atmosfera bosimli (17.6%) saxaroza eritmasi yordamida urug‘larning unib chiqishiga ko‘ra (2-jadval), shuningdek, Hassan (2015) usulida namunalar plastik idishlarda unib chiqqanidan 33 kun o‘tgach, optimal va stress sharoitidagi o‘simlik bo‘yi (3-jadval), tup soni, ildiz soni, ildiz uzunligi kabi belgilarini tahlil qilish orqali chidamli namunalar aniqlangan.

## 2-jadval.

### Otalik va onalik shakllarining qurg‘oqchilikka chidamlilik darajasi.

№	Namunalar	Chidamlilik* guruhi	Chidamlilik darajasi, %	Chidamlilik klassifikatsiyasi
1	Xisorak	III	50	O‘rtacha chidamli
2	Asr	II	25	O‘rtacha chidamsiz
3	Shams	I	20	Chidamsiz
4	KR12-07	IV	70	Chidamli
5	KR12-5003	II	30	O‘rtacha chidamsiz
6	KR12-9023	IV	65	Chidamli

\*Chidamlilik guruhining yuqori bo‘lshi chidamlilikning yuqori bo‘lishini anglatadi


Natijalarga ko‘ra har ikkala usulda ham KR12-07 va KR12-9023 tizmalarining qurg‘oqchilikka chidamli ekanligi aniqlandi. Bunda, Osipov va Kojushko usuliga ko‘ra namunalar mos ravishda 70% va 65% (2-jadval), Hassan usuliga ko‘ra namunalarning chidamlilik indeksi mos ravishda 93,5% va 94,7% boshqa namunalarga nisbatan chidamliroq ekanligi kuzatilgan (3-jadval).

### 3-jadval.

#### Tadqiqot namunalarining ikki xil muhitda o‘simlik bo‘y ko‘rsatkichi.

№	Namunalar	O‘simlik bo‘yi, sm		Chidamlilik indeksi (ChI, %)
		Optimal	Stress	
1	Xisorak	35,6±0,7	29,8±0,9	83,7
2	Asr	40,2±0,6	36,1±1,4	89,8
3	Shams	37,9±0,7	32,5±0,9	85,7
4	KR12-07	41,7±0,3	39,0±1,0	93,5
5	KR12-5003	38,0±1,0	33,0±1,0	86,8
6	KR12-9023	35,7±0,9	33,8±1,0	94,7

DNK markeri tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan bog‘liq 29 ta DNK markeridan 11 tasi namunalar orasida polimorf bo‘ldi. Ushbu polimorf markerlar orasida Xgwm484 markerining 180 juft nukleotiddan iborat alleli qurg‘oqchilikka chidamli namunalarda aniqlangan. Bu Xgwm484 markerining qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Chidamlilik marker allellari asosida tuzilgan filogenetik daraxt ham ushbu natijani tasdiqladi va chidamli namunalarning alohida guruhni tashkil etganligini ko‘rsatgan (4-rasm).




**4-rasm.** Tadqiqot namunalarining qurg‘oqchilikka chidamlilik allellari asosida tuzilgan klaster tahlili.

Ushbu natijalar Xgwm484 markeridan bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamliligini aniqlashda foydalanish mumkinligini ko‘rsatgan.

Dissertatsiyaning **“Murakkab kombinatsiyali duragaylar olish, polimorf markerlar asosida genotiplash va chidamliligini baholash”** mavzusidagi to‘rtinchi bobida oddiy va murakkab kombinatsiyali duragaylar olish va morfobiologik belgilarini, biotik va abiotik stress omillariga chidamliligini baholash hamda chidamlilik marker allellariga ega bo‘lgan genotiplarni tanlab olishga qaratilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Bobning murakkab kombinatsiyali duragaylar olish va morfo-biologik belgilarini baholashga qaratilgan bo‘limida oddiy va murakkab kombinatsiyali duragaylarni olinish, ularni tavsiflash va belgi-xususiyatlarining irsiylanishi va o‘zgaruvchanlik ko‘lamini aniqlash tadqiqotlari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, otalik shakllaridagi bitta boshqadagi don soni belgisi  $F_1(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003})$  ( $hp=2,7$ ) va  $F_1(\text{KR12-07} \times \text{Shams})$  ( $hp=19,2$ ) duragay kombinatsiyalariga o‘ta dominant tarzida irsiylanganligi kuzatilgan.  $F_1(\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  kombinatsiyasi duragaylarida esa irsiylanish koeffitsenti  $hp=0,2$  ga teng bo‘lib, to‘liqsiz dominantlik tarzida irsiylanganligi namoyon bo‘ldi. Otalik shakllaridagi 1000 ta don vazni belgisi  $F_1(\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  ( $hp=2,5$ ) va  $F_1(\text{KR12-07} \times \text{Shams})$  ( $hp=16,7$ ) duragay kombinatsiyalariga o‘ta dominant tarzida irsiylanganligi aniqlandi.  $F_1(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003})$  duragay kombinatsiyasida esa  $hp=0,9$  ga teng bo‘lib, to‘liqsiz irsiylanishni namoyon qilgan (5-rasm).




**5-rasm.** Birinchi avlod ( $F_1$ ) duragay kombinatsiyalarda bitta boshqadagi don soni va 1000 ta don vazni ko‘rsatkichlarining irsiylanishi. **A** - Xisorak, **AxB** -  $F_1(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003})$ , **B** - KR12-5003, **C** - KR12-9023, **CxD** -  $F_1(\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$ , **D** - Asr, **E** - KR12-07, **ExF** -  $F_1(\text{KR12-07} \times \text{Shams})$ , **F** - Shams.

O‘rganilayotgan  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003})$ ,  $F_2(\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  va  $F_2(\text{KR12-07} \times \text{Shams})$  duragay kombinatsiyalarida 1000 ta don vaznining nasldan-naslga berilishi mos ravishda  $h^2=0,71$ ,  $h^2=0,68$  va  $h^2=0,74$  ekanligi aniqlangan. Murakkab kombinatsiyali  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-07} \times \text{Shams})$ ,  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  va  $F_2(\text{KR12-07} \times \text{Shams}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  duragaylarda ushbu belgi irsiylanishining nisbatan yuqori bo‘lishi belgining nasldan-naslga berilishdagi ( $h^2=0,55$ ;  $h^2=0,69$  va  $h^2=0,65$ ) genotipik hissasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar oddiy duragaylashdan ko‘ra murakkab duragaylash usulining ahamiyati yuqori ekanligini va bu salbiy ko‘rsatkichga ega namunalar bilan bir qatorda ijobiy transgressiv hamda rekombinativ shakllar olish imkoniyatini asoslagan.


Ushbu bobning ikkinchi bo‘limida duragaylarning sariq zang, yuqori harorat va qurg‘oqchilikka chidamliligi dala va laboratoriya sharoitida baholash natijalari hamda murakkab kombinatsiyali  $F_2$  duragaylarida PZR tahlillari va chidamlilik tahlil natijalari keltirilgan.

Duragaylarning sariq zang kasalligiga chidamliligi o‘simliklarning naychalash va boshqalash fazalarida zararlanish darajasi va reaksiyasiga ko‘ra baholandi. Baholash natijasida  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-07} \times \text{Shams})$  duragay kombinatsiyasining 127 ta genotipdan 25,0% chidamli, 75,0% chidamsiz;  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  kombinatsiyasining 110 ta genotipdan 25,0% chidamli, 75,0% chidamsiz;  $F_2(\text{KR12-07} \times \text{Shams}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  kombinatsiyasining 100 ta genotipdan 19,0% chidamli, 81,0% chidamsiz bo‘lganligi kuzatilgan (6-rasm).



6-rasm. Murakkab kombinatsiyali  $F_2$  duragaylarning sariq zang kasalligiga chidamliligi.


Yuqori haroratga chidamlilik bo‘yicha  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-07} \times \text{Shams})$  duragay kombinatsiyasining 127 ta genotipdan 7% o‘ta chidamli, 10% chidamli, 21% o‘rtacha chidamsiz va 62% chidamsiz;  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  kombinatsiyasining 110 ta genotipdan 12% o‘ta chidamli, 3% chidamli, 39% o‘rtacha chidamsiz va 46% chidamsiz;  $F_2(\text{KR12-07} \times \text{Shams}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  kombinatsiyasining 100 ta genotipdan 8% o‘ta chidamli, 8% chidamli, 84% o‘rtacha chidamsiz va chidamsiz ekanligi aniqlangan (7-rasm).



7-rasm. Murakkab kombinatsiyali duragaylarning yuqori harorat ta'siriga chidamlilik darajasi.


Qurg‘oqchilikka chidamlilik bo‘yicha  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-07} \times \text{Shams})$  duragaylarida jami 127 ta namuna tahlil qilingan, shundan V guruhga mansub qurg‘oqchilikka o‘ta chidamli namunalar 10,0% ni, IV guruhga mansub

chidamli namunalar 13,0% ni, III guruhga mansub o'rtacha chidamli namunalar 17,0% ni, II guruhga mansub o'rtacha chidamsiz namunalar 13,0% ni hamda I guruhga mansub chidamsiz namunalar soni 47,0% ni tashkil etdi.  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  duragay kombinatsiyada jami 110 ta genotiplar qurg'oqchilikka chidamlilik darajasi bo'yicha quyidagicha guruhlariga ajraldi: V guruh o'ta chidamli namunalar 23,0%, IV guruhga mansub chidamli namunalar 13,0%, III guruhga mansub o'rtacha chidamli namunalar esa 9,0%, II guruhga mansub o'rtacha chidamsiz namunalar 15,0%, I guruhga mansub chidamsiz namunalar 40,0% ni tashkil etdi.  $F_2(\text{KR12-07} \times \text{Shams}) \times (\text{KR12-9023} \times \text{Asr})$  ushbu kombinatsiya doirasida jami 100 ta namunalar tahlil qilinganda, qurg'oqchilikka chidamlilik darajasiga ko'ra V guruhga mansub o'ta chidamli namunalar 16,0%, IV guruhga mansub chidamli namunalar 14,0%, III guruhga mansub o'rtacha chidamli namunalar 16,0%, II guruhga mansub o'rtacha chidamsiz namunalar 21,0%, I guruhga mansub chidamsiz namunalar 33,0% ekanligi aniqlangan (8-rasm).




**8-rasm.** Murakkab kombinatsiyali  $F_2$  duragaylarning qurg'oqchilikka chidamlilik darajasi.

PZR tahlillariga ko'ra,  $F_2(\text{Xisorak} \times \text{KR12-5003}) \times (\text{KR12-07} \times \text{Shams})$  duragaylarining 30 tasidan 7 tasida zangga chidamlilikka aloqador Xgwm120\_156 marker alleli bo'yicha 7 tasida gomozigota, 10 tasida geterozigota holatida ekanligi aniqlangan bo'lsa qolgan 13 ta namuna genomida ushbu allel aniqlanmadi (9-rasm A). Ushbu duragay kombinatsiyaning yuqori haroratga chidamlilikka aloqador Xcfa2147\_300 marker allellarining tahliliga ko'ra 17 ta duragayda gomozigota, 5 tasida geterozigota holatida, qolgan 8 tasi genomida esa mutlaqo uchramagan (9-rasm B). Shuningdek, qurg'oqchilikka chidamlilik bo'yicha Xgwm484\_180 allelning tahliliga ko'ra 14 ta namunalarda chidamlilik alleli gomozigota holatida, 11 tasi geterozigota holatida, qolgan 5 tasi esa namunalar genomida amplifikatsiya bo'lmagan (9-rasm D).



**9-rasm.**  $F_2$  (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-07×Shams) murakkob duragay kombinatsiyasining gel-elektroforegrammasi. **M** - Molekulyar og'irlik markeri, **A** – Xgwm120 (156 juft asos), **B** – Xcfa2147 (300 juft asos), **D** – Xgwm484 (180 juft asos), 1 - Xisorak, 2 - KR12-5003, 3 - KR12-07, 4 - Shams, 5 -  $F_1$ , 6-35 -  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-07×Shams) duragaylari.


Murakkab kombinatsiyali  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-9023×Asr) duragaylarda sariq zang kasaliligiga chidamlilik markeri Xgwm120\_156 allel holatiga ko'ra 30 ta namunadan 12 tasida gomozigota, 5 tasida geterozigota, qolgan 13 ta duragaylarda ushbu allel uchramadi (10-rasm A). Shuningdek, Xcfa2147\_300 yuqori haroratga chidamlilik markerining tegishli alleli 9 ta duragayda gomozigota, 11 tasida geterozigota holatida mavjud ekanligi kuzatildi, qolgan 10 ta duragay genomida uchramadi (10-rasm B). Bundan tashqari, Xgwm484\_180 qurg'oqchilikka chidamlilik marker alleli bo'yicha 16 ta duragaylarda gomozigota, 6 tasida geterozigota holatda, qolgan 8 ta duragay genomida ushbu chidamlilik alleli uchramagan(10-rasm D).



**10-rasm.**  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-9023×Asr) murakkab duragay kombinatsiyasining gel-elektroforegrammasi. **M** - Molekulyar og'irlik markeri, **A** – Xgwm120 (156 juft asos), **B** – Xcfa2147 (300 juft asos), **D** – Xgwm484 (180 juft asos), 1 - Xisorak, 2 - KR12-5003, 3 - KR12-9023, 4 - Asr, 5 -  $F_1$ , 6-35 -  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-9023×Asr) duragaylari.

Tadqiqotimiz davomida  $F_2$ (KR12-07×Shams)×(KR12-9023×Asr) duragaylarida zangga chidamlilikning Xgwm120\_156 marker bilan amalga oshirilgan PZR tahlili natijalariga ko'ra, 10 ta duragaylarda chidamlilik alleli gomozigota holatida ekanligi, 9 tasida geterozigota holatida ekanligi kuzatildi. Qolgan 11 ta duragaylarda sariq zang kasaliligiga chidamlilik alleli uchramaganligi

aniqlandi (11A-rasm). Xcfa2147\_300 yuqori haroratga chidamlilik marker alleli tahliliga ko‘ra 5 ta duragaylarda gomozigota holatida ekanligi, 8 tasida geterozigota, qolgan 17 ta duragay genomida chidamlilik alleli uchramadi (11B-rasm). Duragaylar Xgwm484\_180 qurg‘oqchilikka chidamlilik marker alleliga ko‘ra genotiplanganda 12 ta ushbu allel gomozigota holatda ekanligi, 9 tasi geterozigota holatidali va qolgan 9 ta duragay genomida uchramaganligi kuzatilgan (11D-rasm).



**11-rasm.**  $F_2(KR12-07 \times Shams) \times (KR12-9023 \times Asr)$  murakkab duragay kombinatsiyasining gel-elektroforegrammasi. **M** - Molekulyar og‘irlik markeri, **A** – Xgwm120 (156 juft asos), **B** – Xcfa2147 (300 juft asos), **D** – Xgwm484 (180 juft asos), 1 - KR12-07, 2 - Shams, 3 - KR12-9023, 4 - Asr, 5 -  $F_1$ , 6-35 -  $F_2(KR12-07 \times Shams) \times (KR12-9023 \times Asr)$  duragaylari.

Shunday qilib, tadqiqot namunalarining an’anaviy va molekulyar-genetik tahlillari asosida murakkab kombinatsiyali ikkinchi avlod duragalari orasidan sariq zang kasalligiga, yuqori harorat va qurg‘oqchilikka chidamlilik marker allellari yagona genotipga jamlagan, kompleks belgilarga ega bo‘lgan yangi transgressiv shakllar olindi. Jumladan,  $F_2(Xisorak \times KR12-5003) \times (KR12-07 \times Shams)$  duragay kombinatsiyasidan 21- va 67-oilalar,  $F_2(Xisorak \times KR12-5003) \times (KR12-9023 \times Asr)$  kombinatsiyasidan 40- va 49-oilalar,  $F_2(KR12-07 \times Shams) \times (KR12-9023 \times Asr)$  kombinatsiyasidan esa 20- va 85-oilar yangi transgressiv shakllar sifatida ajratib olingan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, DNK markerlari texnologiyasi bug‘doyning abiotik va biotik stresslarga chidamli yangi genotiplarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bug‘doyda yaratilgan keng genetik xilma-xillikka ega bo‘lgan murakkab kombinatsiyali duragaylar, tarixiy seleksiya jarayonlarida yuzaga kelgan genetik torayish muammosini hal qiladi. Ushbu duragaylar bug‘doy seleksiyasi uchun qimmatli belgilarni o‘z ichiga olgan boshlang‘ich seleksion manbalarni taqdim etadi va populyatsiya ichidan yaxshilangan xususiyatlarga ega genotiplarni tanlash orqali yangi navlarni yaratish imkonini beradi.

## XULOSALAR

“DNK markerlar texnologiyasi yordamida yumshoq bug‘doyning biotik va abiotik omillarga chidamli genotiplarini olish” mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etilgan:

1. Laboratoriya va dala sinovlari natijasida Xisorak, KR12-9023 va KR12-5003 nav va tizmalari sariq zangga immunli (zararlanish 0%), KR12-5003 tizmasi yuqori haroratga o‘ta chidamli, KR12-07 tizmasi qurg‘oqchilikka chidamli 70% (IV guruh) ekanligi aniqlandi;

2. Bug‘doy namunalarini biotik va abiotik stresslarga chidamlilikka aloqador 103 ta SSR markerlari bilan genotiplash, namunalarning chidamlilik allellari bo‘yicha genetik xilma-xilligini o‘rganishga imkon berdi;

3. Bug‘doy namunalarining genetik polimorfizmi asosida ularning filogenetik shajarasi tuzildi va namunalarning o‘zaro filogenetik uzoq yoki yaqinligi ochib berildi.

4. Bug‘doy namunalaridagi genotipik va fenotipik (chidamlilik) ma‘lumotlarning statistik tahlili asosida Xgwm120\_156 juft asosli alleli (*Yr5* geni) markerining sariq zang kasalligiga, Xcfa2147\_300 markerining yuqori haroratga hamda Xgwm484\_180 markerining qurg‘oqchilikka chidamlilikka yuqori darajada aloqador va ishonchi markerlar ekanligi aniqlandi;

5. Murakkab kombinatsiyali  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-07×Shams),  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-9023×Asr) va  $F_2$ (KR12-07×Shams)×(KR12-9023×Asr) duragaylarning 2 tadan genotipida o‘rganilayotgan barcha chidamlilik allellari (Xgwm120\_156, Xcfa2147\_300 va Xgwm484\_180) yagona genotipga jamlanganligi aniqlandi;

6. Uchala chidamlilik allellariga ega barcha duragay o‘simliklari zang kasalligiga immunli, yuqori haroratga o‘ta chidamli, qurg‘oqchilikka mos ravishda 85-100% (V guruh) chidamli ekanligini namoyon etdi;

7. Murakkab kombinatsiyali  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-9023×Asr) duragaylar uchala stress omiliga chidamlilik bo‘yicha eng yaxshi natijani ko‘rsatib, 56,6% duragaylarda zangga chidamlilik alleli mavjudligi, 26% o‘simliklar fenotipik chidamli bo‘lganligi aniqlandi. 66,6% duragaylarda yuqori haroratga chidamlilik alleli kuzatilgan, 14,5% o‘simlik o‘ta chidamli ekanligi, shuningdek, 80% o‘simliklarda qurg‘oqchilikka chidamlilik allellarining mavjudligi, 36% duragaylar esa chidamli ekanligi kuzatilgan;

8. Genomida chidamlilik allellari mavjud  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-07×Shams),  $F_2$ (Xisorak×KR12-5003)×(KR12-9023×Asr) va  $F_2$ (KR12-07×Shams)×(KR12-9023×Asr) kombinatsiyalarga mansub 6 ta duragaylarni sariq zang kasalligiga, yuqori harorat va qurg‘oqchilikka chidamlilik uchun seleksion dasturlarda boshlang‘ich ashyo sifatida hamda Xgwm120\_156, Xcfa2147\_300 va Xgwm484\_180 DNK markerlarini ishonchli markerlar sifatida foydalanishga tavsiya etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ ГЕНЕТИКИ И  
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ БИОЛОГИИ РАСТЕНИЙ**

---

**ИНСТИТУТ ГЕНЕТИКИ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ  
БИОЛОГИИ РАСТЕНИЙ**

**ЭРЖИГИТОВ ДОСТОН ШЕРАЛИЕВИЧ**

**ПОЛУЧЕНИЕ ГЕНОТИПОВ МЯГКОЙ ПШЕНИЦЫ,  
УСТОЙЧИВЫХ К БИОТИЧЕСКИМ И АБИОТИЧЕСКИМ  
ФАКТОРАМ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ ДНК-  
МАРКЕРОВ**

**03.00.09 – Общая генетика**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**ТАШКЕНТ – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/B1338.**

Диссертационная работа выполнена в Институте генетики и экспериментальной биологии растений.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.genetika.uz](http://www.genetika.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Тураев Озод Суннаталиевич</b> доктор философии (PhD) по биологическим наукам
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Бозоров Тохир Ахмадович</b> доктор биологических наук <b>Хамраев Нурбек Улугбекович</b> доктор философии (PhD) по биологическим наукам
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова</b>

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.53.01 при Институте генетики и экспериментальной биологии растений, (Адрес: 111208, Ташкентская область, Кибрайский район, пос Юкори-юз дом 266). Актовый зал института генетики и экспериментальной биологии растений. Тел.: (99871) 264-23-90, факс: (99871) 264-22-30. E-mail: [igebr@academy.uz](mailto:igebr@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Института генетики и экспериментальной биологии растений (зарегистрировано за № \_\_\_\_). Адрес: 111208, Ташкентская область, Кибрайский район, пос Юкори-юз. Тел.: (99871) 264-23-90, факс: (99871) 264-22-30.

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(реестр протокола № \_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**А.А. Нариманов**

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.с/х.н., профессор

**И.Дж. Курбанбаев**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

**И.Т. Каххаров**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.с/х.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Пшеница (*Triticum aestivum* L.) является одной из наиболее широко возделываемых и питательно ценных зерновых продовольственных культур в мировом сельском хозяйстве. Рост численности населения на планете приводит к постоянному увеличению потребности в продуктах питания. Однако глобальные изменения климата, а также различные биотические и абиотические стрессовые факторы оказывают негативное влияние на урожайность пшеницы, что требует создания новых генотипов и сортов, устойчивых к данным неблагоприятным условиям. С целью смягчения последствий климатических изменений во многих странах мира активно ведутся исследования по созданию сортов пшеницы, устойчивых к биотическим и абиотическим стрессам, с применением технологии молекулярных ДНК-маркеров. Эти исследования имеют большое значение для повышения продуктивности культур и удовлетворения растущих потребностей населения в продуктах питания.

В условиях современного сельского хозяйства обеспечение стабильной продовольственной безопасности и повышение урожайности стратегических культур, таких как пшеница (*Triticum aestivum* L.), остаются приоритетными задачами. В частности, ведутся обширные исследования по выявлению генов и ДНК-маркеров, связанных с устойчивостью мягкой пшеницы к высоким температурам, засухе и жёлтой ржавчине, а также по их использованию в современных селекционных технологиях для создания устойчивых сортов. Несмотря на достигнутые успехи, жёлтая ржавчина, высокая температура и засуха по-прежнему остаются серьёзными проблемами, требующими эффективного решения. В этом контексте создание высокопродуктивных и устойчивых к стрессовым условиям генотипов и сортов мягкой пшеницы представляет собой одну из актуальных задач современной селекции.

В нашей стране в области зерноводства проводятся научные исследования, направленные на создание сортов мягкой пшеницы, устойчивых к биотическим и абиотическим стрессам, с внедрением интенсивных и инновационных методов. В рамках проведенных исследований достигнуты важные результаты в создании новых перспективных сортов путем определения генотипов мягкой пшеницы, адаптированных к местным климатическим условиям и устойчивых к заболеваниям, а также применения полученных данных в селекции. В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60, касающемся стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, обозначены задачи по научному интенсивному развитию сельского хозяйства с целью «увеличение доходов крестьян и фермеров не менее чем в два раза, а также достижения ежегодного роста сельского хозяйства не менее 5 процентов»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

